

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

ERMATOV OTABEK SAYITOVICH

**PAST HARORATDA OLINGAN QUYULTIRILGAN TOMAT
SHARBATI ASOSIDA SOUSLAR TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish,
saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the dissertation abstract of doctorof Philosophy (PhD)

Ermatov Otabek Sayitovich

Past haroratda olingan quyultirilgan tomat sharbati asosida souslar tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish..... 3

Эрматов Отабек Сайитович

Совершенствование технологии приготовления соусов на основе концентрированного томатного сока, полученного при низкой температуре..... 21

Ermatov Otabek

Improving the technology for preparing sauces based on concentrated tomato juice obtained at low temperatures..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

ERMATOV OTABEK SAYITOVICH

**PAST HARORATDA OLINGAN QUYULTIRILGAN TOMAT
SHARBATI ASOSIDA SOUSLAR TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish,
saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4146 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax politehnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bstu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Xoldorov Bahodir Baratovich texnika fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Axmedov Azimjon Normo'minovich texnika fanlari doktori, professor Choriyev Abdusattor Jo'rayevich texnika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-noyabr soat 11⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Tel.: (99865) 223-78-84, faks: (99865) 223-78-84; e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (396 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Tel.: (99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 13-noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 20-avgust daqi № 12 raqamli reestr bayonnomasi).



S.F.Fozilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

A.T.Oltiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

I.B.Isabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda bugungi kunda meva-sabzavot yetishtirish jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda, ularni saqlash, chuqur qayta ishlash va ulardan yarimtayyor oziq-ovqat mahsulotlari olish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish va texnologiyalarini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu sababli yangi yo'nalishdagi izlanishlarni olib borishda asosan aholini sifatli, ozuqaviy qimmati yuqori bo'lgan tayyor va yarimtayyor mahsulotlar bilan ta'minlashga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni takomillashtirish, jumladan, meva-sabzavotlarni qayta ishlash va ulardan turli xil mahsulotlar ishlab chiqarib, iste'mol darajasini ovqatlanish ratsioni me'yorlari darajasiga olib chiqishga. Bu borada yangi texnologiyalar yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq etish, yuqori sifatli mahsulotlar olish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ozuqaviy va biologik qiymatini saqlab qolish, asosiy xomashyolarni tejash, tabiiy xomashyo va mahsulotlardan samarali foydalanish, tayyor mahsulot tannaxini kamaytirish hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini yarimtayyor mahsulotlar bilan ta'minlashni rivojlantirish va kengaytirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash sohasida zamonaviy usullarni qo'llash olinayotgan tayyor mahsulotlarni sifat ko'rsatkichlarini jaon standart talablariga moslashtirishga oid izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar asosida oziq-ovqat va umumiy ovqatlanish korxonasi tarmoqlarida meva-sabzavotlarni qayta ishlash, yarimtayyor mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha yangi texnologiyalar yaratishda bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida (2025-2030 yy.) "...tarmoqlarni rivojlantirish, sanoatni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, energiya va resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash import o'rnini bosuvchi raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish..."¹ kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun meva-sabzavotlarni takomillashgan qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni jahon standart iste'mol me'yori talablari darajasiga ko'tarish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagi "Meva sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jalik kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239-sonli "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-sonli "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishini ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining IV. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Meva va sabzavotlarni qayta ishlash va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun sous yarimtayyor mahsulotlar ishlab chiqish texnologiyalari bo‘yicha dunyoda quyidagi olimlar: J.Shulze, E.Anter, A.C.Amadi Joy, M.I.Belyayev, V.S.Baranov, G.M.Postnova, A.I.Cherevko, R.P.Uistler, N.R.Uspenskaya, L.V. Babichenko, E.F.Pashel, G.S.Klimov, D.I.Lobanov, N.I.Kovalev S.Yu.Glebova mamlakatimizda esa Q.O.Dodayev, A.Dj.Toshev, Sh.N.Ataxanov, M.H.Dadamirzayev, R.A.Akrambayev, A.J.Choriyev, N.Sh. Kuliyeu kabi yetakchi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu olimlar tomonidan sabzavotlarni yetishtirish, hosil miqdori ortib borayotganligi, ammo aholining bu xomashyoni fiziologik me‘yor talablarida iste‘mol qilmayotganligi hamda ushbu muammoni yechish yo‘lida iste‘mol miqdorini konserva sanoati va umumiy ovqatlanish korxonalarida zamonaviy texnologiyalar qatorida amaliyotga joriy qilingan.

Biroq, olib borilgan ilmiy-texnik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda sabzavotli sous-pasta yarimtayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishda xomashyoni biologik va oziqaviy qimmatini to‘la saqlab, yengil issiqlik ishlovi berish, ulardan mahsulotlar tayyorlashda o‘z sharbatidan samarali foydalanish hamda parhezboqligini oshirish uchun turli foydali qo‘shimchalar bilan boyitish, shuningdek, konserva sanoati va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun tayyor mahsulot va yarimtayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirib, mahsulot tayyorlash jarayonini soddalashtirish, unumdorlikni oshirish va ishchi kuchi, energiya sarfi, vaqt me‘yoridan samarali foydalanishga erishish borasida yetarlicha chuqur tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun resurstejamkor, ekologik xavfsiz, oziqaviy qimmatini yuqori mahsulotlar texnologiyasini ishlab chiqish”, 2024-2026-yillarga mo‘ljallangan “Tomat asosida sous yarimtayyor mahsulotlari texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi 25/32-sonli xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi past haroratda olingan quyultirilgan tomat sharbati asosida souslar tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

an‘anaviy va sentrifugalash-bug‘latish tizimida tomat mahsulotlari olish usullarini energiya sarfi va yuqori temperaturaning ta‘sir etish davomiyligini tahlil qilish;

tomat pulpasini sentrifugalash jarayonini modellashtirish, tadqiq etish va optimallashtirish;

pulpadan ajratigan fugatni past haroratda bug‘latib, quyultirilgan tomat mahsulotlari olish jarayonini matematik modellashtirish, tadqiq etish va

optimallashtirish;

tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsuloti uchun suyuq asosning retsepti va ishlab chiqarish texnologiyasi rejimlarining optimal nisbatini aniqlash;

tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsulotlarining konsistensiyasini shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ingredientlardan biri hisoblangan unlarni (bug'doy, undirilgan mosh) turli sistemalarda bo'kish darajasi va komponentlarning birgalikdagi o'zaro ta'sirini tadqiq etib, yarimtayyor va tayyor mahsulotning xossalari majmuasini yaratish;

xomashyosi va sous massalarining mikrobiologik, strukturaviy-mexanik, reologik va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish;

sous-pasta yarimtayyor mahsulotlari sifati va oziqaviy qiymatlarini tadqiq etish;

souslar tayyorlash va qo'llash texnologiyasini shakllantirish, rasmiylashtirish, sous-pasta yarimtayyor mahsulotlarining me'yoriy-texnik va amaliyotga qo'llashning iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida mahalliy sharoitda yetishtirilgan tomat, undan tayyorlangan sous-pasta yarimtayyor mahsulotlari, undirib quritilgan mosh uni va souslar ishlab chiqarish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti mahalliy sharoitda yetishtirilgan tomat, undan turli tabiiy qo'shimchalar asosida sous-pasta yarimtayyor mahsulotlari tayyorlash texnologiyasi va retsepturasini ishlab chiqish, sous-pasta yarimtayyor mahsulotlari asosida iste'molga tayyor souslar tayyorlash tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishda sabzavot sous-pasta yarimtayyor mahsulotini organoleptik ko'rsatkichlarini baholashning modifikatsiyalangan usuli, Lourining oqsil miqdorini aniqlash, ekstraktsiyalash, yodometrik, fotometrik hamda Fisher usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sentrifugalash-bug'latish tizimida tomat mahsulotlari olish usulida energiya sarfining 10-14% ga kamayishi, bug'latish jarayoni jadallashishi natijasida yuqori harorat ta'sirining qisqarishi natijasida tomat pastasi rangining yorqin qizil bo'lishi, ingrediylarning to'liq saqlanib qolinishi, tomat pastasining mavjud usuldagiga nisbatan 5-9% ko'proq yarimtayyor mahsulot chiqishi ilmiy asoslangan;

tomat sous-pastasi asosida yangi retsept bo'yicha tayyorlangan sousning tarkibida undirilgan moshning 17% miqdorda qo'shilganda glyutensiz sous olish usuli yaratilishi hamda mineral moddalari 37%, oqsil miqdori 19% ga boyishi, yarimtayyor mahsulotning o'rta zichlikka ega bir jinsli massa hosil qilishi, sabzavotlar xushbo'yiligi bilan tomat hidi va ta'mi mavjud bo'lishi, rangi yorqin qizil holatda bo'lishi ilmiy asoslangan;

pulpani fraksiyalab, ajratigan fugatni 50⁰C haroratda ko'p korpusli vakuum - bug'latish kompleksida quyultirish jarayoni matematik modellashtirilgan, jarayonning iqtisodiy ko'rsatkichlari uchun tenglamalar olinib, tadqiq etilgan va optimal sharoitlari isbotlangan;

tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsulotlari uchun suyuq asosning retsepturasi va ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsuloti retsepturalar majmuasi, jumladan qovoqli, sabzili sous-pasta yarimtayyor mahsuloti tarkibi va tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsuloti ishlab chiqarish texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

sous-pasta yarimtayyor mahsulotlari ishlab chiqarish uchun texnik shart va texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilgan;

tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsuloti ishlab chiqarish texnologiyasi "BMB AGRO PLUS" MCHJ korxonasi qo'llashning yillik iqtisodiy samaradorligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi eksperimental natijalarni olishda yuqori aniqlikdagi refraktometrlar, analitik tarozilardan foydalanilganligi, STATISTICA 7.0 kabi zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanilganligi, regression tenglamalarning aniqligi va ko'rilayotgan soha bo'yicha ularni baholash mezonlarining adekvatliligi, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va real ishlab chiqarish ma'lumotlari bilan qiyosiy tahliliga ko'ra aniqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, sentrifugalash-bug'latish tizimida tomat mahsulotlari olish usulida energiya sarfining kamayishi, bug'latish jarayoni jadallashishi natijasida yuqori harorat ta'sirining qisqarishi natijasida tomat pastasi rangining yorqin qizil bo'lishi, ingredientlarning to'liq saqlanib qolinishi, tomat pastasining mavjud usuldagiga nisbatan ko'proq yarimtayyor mahsulot chiqishi ilmiy asoslanganligi, tomat sous-pastasi asosida yangi retsept bo'yicha tayyorlangan sousning tarkibida undirilgan mosh qo'shilganda glyutensiz sous olish usuli yaratilishi hamda mineral moddalari, oqsil miqdorining boyishi, yarimtayyor mahsulotning o'rta zichlikka ega bir jinsli massa hosil qilishi, sabzavotlar xushbo'yiligi bilan tomat hidi va ta'mi mavjud bo'lishi asoslanganligi, pulpani fraktsiyalab, bug'latish kompleksida quyultirish jarayoni matematik modellashtirilganligi, jarayonning iqtisodiy ko'rsatkichlari uchun tenglamalar olinib, tadqiq etilganligi va optimal sharoitlari isbotlanganligi, tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsulotlari uchun suyuq asosning retsepturasi va ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsuloti retsepturalar majmuasi, jumladan qovoqli, sabzili sous-pasta yarimtayyor mahsuloti tarkibi va tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilganligi, tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsuloti ishlab chiqarish texnologik sxemasi ishlab chiqilganligi, sous-pasta yarimtayyor mahsulotlari ishlab chiqarish uchun texnik shart va texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilganligi, tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsuloti ishlab chiqarish texnologiyasi "BMB AGRO PLUS" MCHJ korxonasi qo'llashning yillik iqtisodiy samaradorligi asoslanganligiga xizmat qiladi.

yarimtayyor mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, organoleptik, fizik-kimyoviy va bakteriologik ko'rsatkichlarini yaxshilashga, ulardan iste'molga tayyor souslar tayyorlashni tadqiq etishga doir tajriba ishlari o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Past haroratda olingan quyultirilgan tomat sharbati asosida souslar tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tomat asosidagi sous-pasta yarimfabrikati uchun suyuq asosning retseptura va ishlab chiqarish texnologiyasi optimal rejimi "EAST AGRO INTERNATIONAL" MCHJ ning amaliyotga joriy etilish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxatiga kiritilgan. (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2025-yilning 12-martdagi 12-24/03-25-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, energiya sarfi 10-14% ga kamayishi, mahsulot tannarxi esa 10% ga arzonlashish imkonini beradi;

sous-pasta yarimtayyor mahsulotlarining takomillashtirilgan texnologiyasi "BMB AGRO PLUS" MCHJ amaliyotga joriy etilish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan. ("O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2025-yilning 12-martdagi 12-24/03-25-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsulotlarning konsistentsiyasini shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ingredientlar (bug'doy va undirilgan mosh unlarini) turli sistemalarda bo'kish darajasi va komponentlarning birgalikdagi o'zaro ta'sirini tadqiq etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjuman, shu jumladan, 7 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Tomatni qayta ishlash, sous yarimtayyor mahsulotlari olish jarayonlarining muammolari**" deb nomlangan birinchi bobida, xomashyo tavsifi, qayta ishlab olinadigan mahsulotlar, souslar, souslarning retseptura va texnologiyalari, ovqatlanishdagi o'rni, ahamiyati, bajaradigan vazifalari, organoleptik xususiyatlari, oziqaviy qiymati hamda bu ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Sous tayyorlashda qo'llaniladigan bulyonlarning tarkibiy qismi shakllantirilgan. Sabzavot xomashyolari asosida

funksional vazifani bajaruvchi yangi turdagi sous-pasta yarimtayyor mahsulotlarini markazlashgan holda ishlab chiqish, ular asosida yangi souslar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishni tashkil etish va umumiy ovqatlanish korxonalari ehtiyojini qondirish masalalari tahlil qilingan. Maydalangan tomatlarga issiqlik bilan ishlov berish va jarayonni uskuna bilan ta'minlash, tomatdan pulpa olish texnologik jarayoni, tomat pulpasini ko'p korpusli vakuum-bug'latish jarayonini matematik modellashtirish va hisoblashning holati, tomat pulpasini vakuum-bug'latish kompleksi (VBK)-da quyultirish texnologiyasini tahlili, markazdan qochma kuchlar maydonida suspenziyalarni ajratish uchun uskunalarini hisoblash va tahlil qilish, qadoqlangan tomat mahsulotlarini sterilizatsiya qilish, shisha idishlarni yuvish va sterilizatsiya qilish jarayonlari o'rganilgan. Yuqorida o'rganilgan ma'lumotlar asosida tadqiqot maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Eksperimental qism, tomatni fraksiyalash, komponentlarni tahlil qilish”**, deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'yekti to'g'risidagi ma'lumotlar o'rganilgan, tadqiqot usullari, laboratoriya, pribor va reaktivlar to'g'risida, tadqiqotlarda qo'llanilgan materiallar va ularning manbalari, tomat pyuresida mineral moddalarni aniqlash, kaltsiy va fosforini aniqlash metodikasi (GOST 31795-2012), ftorni aniqlash (yuqorida keltirilgan uslub asosida amalga oshiriladi), margimushni aniqlash metodi (GOST 26930-86), tomat vitaminlarini aniqlash usuli, B₁ vitaminni aniqlash usullari (GOST 7047-55) yoritilgan.

Dissertatsiya ishining **“Tomat sharbati olish jarayonini modellashtirish va optimallashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida sentrifugalash-bug'latish tizimida quyultirilgan tomat mahsuloti olish jarayonini matematik modellashtirish natijalari keltirilgan. Buning uchun avvalo tomat pulpasining to'liq tarkibi o'rganilgan. Tomat sharbati tarkibida quruq modda miqdori 4 dan 9%-gacha bo'lib, o'rtacha 6% deb yuritiladi. Quruq moddaning bir qismi urug' va po'stloqdan iborat bo'lib, ular dastlabki operatsiyalarda ajratib olinadi. Pulpada qandlar 2-5%-ni tashkil etib, glyukoza va fruktoza, saxaroza, kraxmal, pektin, sellyuloza mavjud. Tomat tarkibida olma, limon, uzum, yantar, shovul, sut va uksus kislotalari va ularni o'rta tuzlari mavjud. Yana azot, kul, bo'yovchi moddalardan – likopin, karotin, ksantofillar mavjud, vitamin va fermentlar to'plami bor. Tomat pulpasi suspenziya, unda dispersion komponent – suv va unda eruvchan moddalar, dispers komponent – suvda erimaydigan moddalardan iborat bo'lgan etning zarrachalari. Zarrachalar zichligi dispersion komponentning zichligiga nisbatan kattaroq. Shuning uchun ishchi diametri 200 mm bo'lgan xo'jalik sentrifugalarda barabanning 1000-1200 ayl/min tezlik bilan aylanishida ajratish mumkinligi tajriba yo'li bilan o'rganilgan. Ammo, aylanish tezligi energiya sarfini optimallashtirish masalasini yechish orqali aniqlanadi. Unda elektrodvigatel quvvati, maqsaddagi mahsulotning konsentratsiyasi ishtirok etadi. Markazdan qochma kuch maydonida ajratish jarayoni, uning harakatlantiruvchi kuchi – ajratilayotgan suspenziya yoki emulsiya komponentlari zichligi farqiga mos ravishda yuzaga kelgan bosimlar farqi ΔR ga asoslangan. Tomat pulpasini sentrifugalash-bug'latish tizimida qayta ishlashning nazariy jihatlari, markazdan qochma kuch maydonida ajratish jarayonining matematik ifodasi olingan.

(2) tenglamalar sistemasi tomat sharbatini sentrifugalash jarayoni iqtisodiy ko'rsatkichlarining matematik modelidir. Uning tarkibiga sentrifuga elektrodvigateli quvvatini amaliy hisoblar uchun soddalashtirilgan, kapital sarflar amortizatsiyasi ajratmalarini, elektr energiyasining yillik sarfini va tomat pulpasini sentrifugalash uchun ketadigan ishlab chiqarish harajatlarini hisoblash formulalari kiradi. Ularda, M – koeffitsient ($M = 0,016-0,018$); N_b -sentrifuga barabani balandligi, m ; n_b - barabanning aylanish tezligi, s^{-1} ; r - barabanning maksimal radiusi, m ; S_s -sentrifuga narxi, so'm; Ye_n - amortizatsiya ajratmalarining me'yoriy koeffitsienti; G_1 - sentrifuga unumdorligi, kg/s ; τ_{sez} – mavsumdagi ishchi vaqt resursi, soat.

Meva-sabzavot sharbatlarini quyultirish uchun vakuum-bug'latish majmualari (VBM)-dan foydalaniladi. Tomatning etsizlantirilgan sharbatini bug'latishning matematik modelini tuzish, qurilma korpuslari sonini aniqlash masalasini kompyuter tadqiqatlari asosida yechish lozim. Bir korpusli VBM bug'latish jarayonini modellashtiramiz. So'ngra, ikki, uch korpusli VBM -ga o'tishimiz mumkin. Kirish va chiqish parametrlarini quyidagicha belgilaymiz.

Tenglamalar sistemasi (1)-da H (H_k) –apparat separatoridagi suyuqlik sathi, $[m]$; S – separator ko'ndalang kesimining yuzasi, $[m^2]$; G_n – apparatga kirayotgan sharbat sarfi, $[kg/s]$; a_n – kirayotgan sharbat konsentratsiyasi, $[kg/kg]$; t_n – apparatga kirayotgan sharbat temperaturasi, $[^{\circ}C]$; G_k – apparatdan chiqayotgan sharbat sarfi, $[kg/s]$; $a_k, a_1, a_{tr1}, a_{m1}, a_{v1}$ - kelayotgan sharbatning, muvofiq, ravishda eruvchan quruq, noeruvchan quruq komponentlari va suvning konsentratsiyasi; a_{tr2}, a_{m2}, a_{v2} - quyuq massadagi quruq modda jumladan, eruvchan va noeruvchan komponentlari hamda suvning konsentratsiyasi; a_{tr3}, a_{m3}, a_{v3} - tindirilgan sharbatdagi, eruvchan va noeruvchan quruq moddalar hamda suvning miqdori; G_1, G_2, G_3 - dastlabki sharbat (kirish), quyuq massa (chiqish), tindirilgan sharbat sarflari (chiqish).

Matematik ifoda tuzish va uni model ko'rinishida tadqiq etish uchun nisbiy o'lchamsiz kattaliklardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Sentrifugaga kelayotgan va undan tindirilgan sharbat va quyuq massa ko'rinishida chiqayotgan sharbat komponentlari uchun material balans tenglamalarini tuzamiz.

Dinamik tavsifi nuqtai nazaridan jarayon tez o'tuvchi va sodda bo'lgan qurilmalar uchun jumladan, MQK maydonida ajratish jarayoni uchun optimallashtirish uning narxi va ishlashdagi harajati - elektr energiyasi harajatidan kelib chiqadi.

a_3 - chiqayotgan sharbat konsentratsiyasi, $[kg/kg]$; t_k -apparatdan chiqayotgan sharbat temperaturasi, $[^{\circ}C]$; G_2 – bug'lanayotgan suyuqlik sarfi (ikkilamchi bug'), $[kg/s]$; m – apparat korpusidagi suyuq aralashma miqdori, $[kg]$; V - apparatdagi suyuqlik hajmi, $[m^3]$; ρ – suyuqlik zichligi, $[kg/m^3]$; ρ – suyuq aralashma zichligi, $[kg/m^3]$; ρ_{ch} – toza mahsulot zichligi, $[kg/m^3]$; t^* – apparat korpusidagi vakuum ostida turgan suyuqlikning qaynash temperaturasi, (muvozanat temperaturasi), $[^{\circ}C]$; s – suyuq aralashmaning issiqlik sig'imi, $[kJ/(kg^{\circ}S)]$; i_p, i_k – trubalararo bo'shliqqa beriladigan bug' va kondensatning entalpiyasi, $[kJ/(kg^{\circ}S)]$; D – trubalararo bo'shliqqa beriladigan yopiq bug' sarfi, $[kg/s]$.

$$\begin{cases}
at1 = ar1 + an1; \\
av1 = 1 - at1; \\
gv1 = G1 * av1; \\
gr1 = G1 * ar1; \\
gn1 = G1 * an1; \\
gt1 = G1 * at1; \\
at3 = ar3 + an3; \\
av3 = 1 - at3; \\
gn1 = gn2; \\
G3 = gn3 / an3; \\
gv3 = G3 * av3; \\
gr3 = G3 * ar3; \\
gt3 = gn3 + gr3; \\
G3 = G1 - G2; \\
gv3 = gv1 - gv2; \\
gr3 = gr1 - gr2; \\
gt3 = gr3; \\
av3 = gv3 / G3; \\
an3 = gn3 / G3; \\
ar3 = gr3 / G3; \\
at3 = gt3 / G3;
\end{cases}$$


(1)

$$\begin{cases}
N_{o\delta u} = 1000 * M * H_{\delta} * n_{\delta}^3 * r^4 \\
A = C_c E_n / G \tau_{cee} 3600 \\
N_s = N_{o\delta u} * \tau_{cez} \\
Z_c = (A * G_1 / G_m) + C_s * N_s / (3600 * G_1 * \tau_{cez})
\end{cases}$$


(2)

(2) tenglamalar sistemasi tomat sharbatini sentrifugalash jarayoni iqtisodiy ko'rsatkichlarining matematik modelidir. Uning tarkibiga sentrifuga elektrodvigateli quvvatini amaliy hisoblar uchun soddalashtirilgan, kapital sarflar amortizatsiyasi ajratmalarini, elektr energiyasining yillik sarfini va tomat pulpasini sentrifugalash uchun ketadigan ishlab chiqarish harajatlarini hisoblash formulalari kiradi. Ularda, M – koeffitsient ($M = 0,016 - 0,018$); N_b – sentrifuga barabani balandligi, m ; n_b – barabanning aylanish tezligi, s^{-1} ; r – barabanning maksimal radiusi, m ; S_s – sentrifuga narxi, $so'm$; Ye_n – amortizatsiya ajratmalarining me'yoriy koeffitsienti; G_1 – sentrifuga unumdorligi, kg/s ; τ_{sez} – mavsumdagi ishchi vaqt resursi, *soat*.


Markazdan qochma kuch maydonida ajratishni matematik modelini tadqiq etish natijalari quyidagilardan iborat:



1-rasm. Sentrifugadan chiqishdagi quyuq massa va fugat konsentratsiyalari $ar2$, $at2$ hamda suyuqlik sarfi $G1$ -ning kirish sarfi $G1$ bo'yicha o'zgarishi.



2-rasm. Quyuq massadagi suv $av2$ va eruvchan $ar2$ komponentlar, tindirilgan sharbatdagi suv $av3$ va zruvchan komponent $ar3$ konsentratsiyalarining o'zgarishi.



3-rasm. Elektroenergiya sarfi, amortizatsiya ajratmalari va 1 kg tomat pulpasiga ketadigan summar sarfning haqiqiy unumdorlikni nazariy unumdorlikka nisbati $G1/Gt$ bo'yicha o'zgarishi.

1-rasmda keltirilgan, sentrifuga chiqishidagi quyuvq massa va fugat kontsentratsiyalari $ar2$, $at2$ hamda suyuqlik sarfi $G1_1$ -ning kirish sarfi $G1$ chiziqli qonuniyat bo'yicha o'zgaradi. 2-rasmdagi quyuvq massadagi suv $av2$ va eruvchan $ar2$ komponentlar, tindirilgan sharbatdagi suv $av3$ va eruvchan komponent $ar3$ kontsentratsiyalari ham chiziqli qonuniyat bo'yicha o'zgaradi. 3-rasmda keltirilgan elektroenergiya sarfi, amortizatsiya ajratmalari va 1 kg tomat pulpasiga ketadigan summar sarfning haqiqiy unumdorlikni nazariy unumdorlikka nisbati $G1/Gt$ kvadrat qonuniyat bo'yicha kamayib boradi, optimal qiymati $G1/Gt$ 1,1-2,0 oralig'ida tanlab olinadi.


Ko'p korpusli vakuum-bug'latish kompleksidagi jarayonning matematik modelini va uni tadqiq etish natijalarini quyida keltiramiz.

$$\left\{ \begin{array}{l} \frac{dH_k}{d\tau} = \frac{1}{S\rho} [G_H - G_K - G_2] \\ G_K = k_1 H_K \\ G_2 = k_2 (t_k - t^*) \\ \frac{da_k}{d\tau} = \frac{1}{SH\rho} [G_H a_H - G_K a_K] \\ \frac{dt_k}{d\tau} = \frac{1}{SH\rho c} [G_H c t_H - G_K c t_K - G_2 i_{vp} + D(i_p - i_k)] \quad (3) \\ \rho = f(a) = \rho_q * a_k + 1000 * (1 - a_k) \\ m = V\rho = SH\rho \\ t = -0.00059 * p^2 + 0.48 * p + 51 \\ i' = -2.5 * p^2 + 2000 * p + 210000 \\ r = 1.4 * p^2 - 1200 * p + 2400000 \\ i'' = -p^2 + 800 * p + 2600000 \end{array} \right. \left\{ \begin{array}{l} A = C_{\text{sey}} E_H / G_K \tau_{\text{ces}} 3600 \\ Z_{\text{ek}} = N_{\text{max}} C_9 / 3600 * G_K \\ Z_{\text{en}} = C_n D_{\text{en}} / 1000 * G_K \\ Z_{\text{xg}} = C_{\text{xg}} * G_{\text{xg}} \\ Z_e = A + Z_{\text{ek}} + Z_{\text{en}} + Z_{\text{xg}} \end{array} \right. \quad (4)$$


Bunda S_{vuu} – vakuum-bug'latish apparati narxi, $so'm$; N_{max} – vakuum-nasos uchun kerak bo'lgan elektrodvigatelning maksimal quvvati, $[kVt]$; S_e – elektroenergiya tannarxi $[so'm]$; S_p 1 t bug' narxi, $[cum]$; S_{xv} - sovuq suv tannarxi $[so'm]$; G_{xv} –sovuq suv sarfi $[kg/s]$.

4-9-rasmlarda vakuum-bug'latish majmuasida chiqishdagi suyuqlik sarfi,


apparatda suyuqlik sathining o'zgarishi, turli kirish parametrlari bo'yicha sharbat konsentratsiyasi oshishining qonuniyatlari o'rganilgan. Bu natijalar amalda tomat sharbati fugatini bug'latib quyultirish hisoblarini amalga oshirishda foydalanish uchun yaroqli.




4-rasm. Vaqt bo'yicha chiqishdagi quruq modda konsentratsiyasi o'zgarishi grafigi.




5-rasm. Vaqt bo'yicha chiqishdagi harorat o'zgarishi grafigi.




6-rasm. Vaqt bo'yicha chiqishdagi suyuqlik sarfi o'zgarishi grafigi.



7-rasm. Vaqt bo'yicha apparatda suyuqlik sathining o'zgarishi grafigi.




8-rasm. (VBQ) vakuum-bug'latish qurilmasining I korpusida $D1=0.93$ kg/s bo'lganda sharbat konsentratsiyasi oshishi grafigi.




9-rasm. VBQ ning korpuslarida $D1=0.93$ kg/s; $D2=0.85$ kg/s; $D3=0.77$ kg/s; $D4=0.69$ kg/s bo'lganda sharbat konsentratsiyasi oshishi grafiglari.

8-11-rasmlarda VBQ-ning korpuslari bo'yicha konsentratsiyalar oshishi grafigi keltirilgan bo'lib, VBQ-ning I korpusiga 35%, II korpusda 50%, III korpusda 0,59%, IV korpusda 0,62%-ga etmoqda. 11-rasmda esa VBQ-ning kirishdagi yopiq bug' sarfi 0,93 kg/s - dan 0,69 kg/s kamayib borishida tayyor konsentratning kamayib borishi grafiglari keltirilgan. Yopiq bug' sarfining ushbu diapazonida tayyor mahsulot konsentratsiyasi 0,62%-dan 0,36%-gacha tushib boradi.




10-rasm. D1=0.93 kg/s bo'lganda VBQning korpuslari bo'yicha konsentratsiyalar oshishi grafigi.



11-rasm. VBQ korpuslarida konsentratsiya oshishining grafiglari D1 = 0.93 kg/s; D2 = 0.85 kg/s; D3 = 0.77 kg/s; D4 = 0.69 kg/s.

12-rasmdagi grafikning vertikal o'qida tomat pulpasini bug'latishga bo'layotgan xarajatlar, gorizonttal o'qda esa VBQ-dagi apparatlar soni o'rnatilgan. VBQ-dagi apparatlar narxi, VBQ-da tomat sharbatini quyultirish uchun sarflanadigan yopiq bug' sarf-xarajati, VBQ-da vakuum hosil qilish sarf-xarajatlar, ikkilamchi bug'larni sovuq suv bilan kondensatsiyalash sarf-xarajatlari hamda VBQ-da bug'latishdagi barcha harajatlar summasining grafigi. Qo'llanilayotgan bu usul optimallashtirishning grafik usuli deyiladi. Grafikdagi eng past nuqta VBQ-dagi eng kam korpus miqdori (optimal)ni ko'rsatadi. Bizning holatimizda bu 2-3 korpusni tashkil etmoqda.



12-rasm. Bug'latilgan sharbat birligi sarf-harajatining VBQ ning korpuslari soniga bog'liqligi grafiglari.


1-apparatlar narxi, 2-apparatlarni yopiq bug' bilan isitish sarf-harajatlari, 3-VBQ-da vakuum hosil qilish sarf-xarajati, 4-ikkilamchi bug'larni sovuq suv bilan kondensatsiyalash sarf-xarajati, 5-VBQ-da bug'latishdagi barcha harajatlar summasining grafigi.

13-14-rasmlarda suyuq asos tayyorlashda go'sht xomashyosiga birlamchi ishlov berib, bulyon tayyorlanadi. Go'shtni navlash 1; yuvish mashinasi 2; suyakni maydalash 3; maydalangan suyak va go'sht asosida bulyon pishirish qozoni 4-ga o'tkazilib, 5-6 soat oralig'ida qaynatish; bulyon 5-da tayyorlanadi, suyak 6-da ajratib olinadi, liniyaning birinchi bo'limini yakunlanadi. Bunda uch turdagi massa - maydalangan go'sht, suyak va bulyon hosil bo'ladi. Bu massalar retsepturadagi tegishli birliklar asosida keyingi jarayonlarda ishlatiladi.

Tomatdan yuqorida keltirilgan texnologiya yordamida olingan pasta sous uchun ilk marotaba ishlatilmoqda. Sabzavotlarga birinchi bo'limda amalga oshirilgan ishlarga parallel ravishda ishlov beriladi. Uskunalar sabzavotlarni yuvish mashinasi 9; inspeksiyalash transportyori 10-ga o'tkaziladi, mexanik zararlangan, pishmagan, biologik yaroqsiz holga kelgan sabzavotlar ajratib olinadi; maydalash mashinasiga g'ozbo'yin transportyor 11-orqali ko'tariladi; kesish mashinasi 12-ga uzatiladi; maydalangan sabzavotlarga issiqlik bilan ishlov berish uchun g'ozbo'yin transportyor 13-ga ko'tariladi; bulyon yog'i tovada 14-da qovuriladi; so'ldirilgan sabzavot massasi mayinlashtirish (protirkalash) mashinasi 15-da diametri 1-2 mm o'lchamdagi metal to'rdan o'tkaziladi; birinchi bo'limda hosil bo'lgan bulyondan retsepturaga mos miqdorda mayinlashtirilgan holda protirkalangan sabzavot aralashmalari birgalikda 7-orqali yig'uv va aralashtiruvchi vanna 19-ga o'tkaziladi; vannada qo'shimcha tomat pyuresi baki 25, qizil bulg'or qalamiri baki 26, tuz uchun dozator 17- va qand eritmasi uchun dozator 18-lar orqali qo'shimchalar solinadi. Sous-pastaning mineral tarkibini yaxshilash uchun undirib quritilgan mosh unidan ham foydalanilgan. Un va sochiluvchan komponentlarga ishlov berish - sochiluvchan komponentlarni elash va unni jazlash uchun mo'ljallangan bo'lib, jarayonlar birinchi va ikkinchi bo'limga paralel ravishda olib boriladi. Undagi begona aralashmalardan tozalash uchun elak 22; unni jazlash tovasi 23; jazlangan un yig'iladi va aralashtiruvchi bunkerga o'tkaziladi, barcha komponentlar arlashtiriladi.


Retsepturada berilgan miqdorlar asosida birinchi, ikkinchi va uchinchi bo'limlarda hosil bo'lgan birliklardan shnekli aralashtirgich mavjud bo'lgan bunker 19-da 7 min davomida bir jinsli massa holatigacha aralashtiriladi. Hosil bo'lgan massa qadoqlash avtomati 20 orqali tara 21-ga solinadi, germetiklanadi va avtoklav 24-da sterilizatsiyalanadi.

Sousning tarkibiy komponentlarning nisbatlari orasidagi o'zaro ta'sir natijalari bog'liqligi qo'yidagicha izohlanadi. Ozuqaviy va biologik qiymatlarni oshiruvchi sous yarimtayyor mahsulot tayyorlash uchun asosan xomashyo souslar tayyorlash uchun bulyon hisoblanadi. Bulyon suyakning suv bilan 2:1 nisbatda qo'shib 4 soat qaynatish orqali olinadi, qaynash jarayonida hosil bo'ladigan yog' suzib olinib, unda sabzavotlar jazlanadi, suyakdagi kollagen go'sht ajratib olinadi. Passerovkalangan sabzavotlar bilan aralashtiriladi hamda mayinlashtirib, bulyonga qo'shiladi. Bulyonning kimyoviy tarkibida quruq moddalar miqdori 6,91 %, №842 retsepturaura bo'yicha tayyorlangan bulyon esa 1,2 %, yog' miqdori sous yarimfabrikatlari bulyonida 2,68 %, №842 retsepturaura bo'yicha esa 0,27 %, oqsillar sous yarimfabrikatlari bulyonida 3,78 %, № 842 retsepturaura bo'yicha esa 0,36 %.



13-rasm. Tomat tayyorlash texnologik liniyasi

1. Yuivish mashinasi; 2. Inspeksiya transportyori; 3. “G‘ozbo‘yin” transportyor; 4. Maydalash mashinasi; 5,16, 21, 26, 28, 47, 55. Nasos; 6. “Quvur ichida quvur” isitish uskunasi; 7. “Quvur ichida quvur” sovutish uskunasi; 8, 9. Isitish uskunasi kirish va chiqish patrubkalari; 10. Isitgichga bug‘ning kirishi; 11. Isitgichdan kondensat chiqishi; 12. Sovutgichga mahsulot kirish patrubkasi; 13. Sovutgichdan mahsulot chiqish patrubkasi; 14, 15. Sovuq suv kirish patrubkalari; 17. Mayinlashtirish mashinasi; 18. Mahsulot yuklash patrubkasi; 19. Mahsulot chiqish patrubkasi; 20. Chiqit chiqish joyi; 22. Sentrifuga; 23. Tamat pulpasi kirish patrubkasi; 24. Tindirilgan sharbat (fugat) chiqish patrubkasi; 25. Quyuq massa chiqish patrubkasi; 27. Tindirilgan sharbat uchun tank. 29. Vakuum-bug‘latish majmuasi (VBM)ning II korpusi; 30. VBM I korpusi separatori; 31. Yopiq bug‘ kirish patrubkasi; 32. Kondensat chiqish patrubkasi; 33. Mahsulot kirish patrubkasi; 34. Mahsulot chiqish patrubkasi; 35. Ikkilamchi bug‘ chiqish patrubkasi; 36. VBM II korpusi; 37. VBM II korpusi separatori. 38. Mahsulot kirish patrubkasi; 39. Mahsulot chiqish patrubkasi; 40. Sex kondensat liniyasi; 41. Kondensator; 42. Sovuq suv kirish patrubkasi; 43. Suv chiqish patrubkasi; 44. VBM ikkilamchi bug‘ chiqish patrubkasi; 45. Ikkilamchi bug‘ kirish patrubkasi; 46. Kondensat chiqish patrubkasi; 48. Aralashtirgich; 49. Tamat kontsentrati kirish patrubkasi; 50. Langarli aralashtirgich; 51. Yuritma; 52. Mahsulot chiqish patrubkasi; 53. Mahsulotni yig‘ish uchun tank; 54. Mahsulot kirish patrubkasi.



14-rasm. Tomatli sous-pasta yarimtayyor mahsuloti tayyorlash texnologik liniyasi.

1-parranda suyagigi navlash; 2-suyakni tozalash; 3-suyakni maydalash; 4-bulyon qaynatish; 5-bulyonni ajratish; 6-suyakdan go'shtni ajratish; 7-bulyonni mayinlashtirish; 8-chiqitni yig'ish; 9-sabzavotlarni yuvish; 10-inspektsiyalash; 11-yuqoriga ko'tarish; 12-maydalash; 13-yuqoriga ko'tarish; 14-passerovkalash; 15-yig'ish sig'imi; 16-vintli nasos; 17-tuz uchun dozator; 18-shakar uchun dozator; 19-yig'uv va aralashtirish vannasi; 20-qadoqlash mashinasi; 21-taralar; 22-unni elash; 23-unni passerovkalash; 24-avtoklav; 25-tomat pyuresi baki; 26-qizil bulg'or qalamiri baki.

1-jadval

Bulyon tayyorlash uchun sarflanadigan mahsulotlar retsepturasi

№	Mahsulotlar	Sarf me'yorlari, kg	
		Brutto	Netto
1.	Suyak	100,0	100,0
2.	Bosh piyoz	1,8	1,5
3.	Petrushka (oq ildizlar)	1,6	1,2
4.	Sabzi	1,8	1,2
5.	Suv	150,0	150,0

Bulyonning kimyoviy tarkibi uning yuqori oziqaviy qiymatidan dalolat beradi.

2-jadval

Sous bulyon yarimtayyor mahsulotining solishtirma tarkibi

№	Ko'rsatkichlar miqdori	№ 842 bo'yicha tayyorlangan bulyon	Sous yarim tayyor mahsuloti uchun bulyon
1	Quruq modda, %	1,2	6,91
2	Oqsil, %	0,36	3,78
3	Yog', %	0,27	2,68

3-jadval

O'rganilgan mosh navlari va bug'doy donining fitokimyoviy tarkibi va energetik qiymati

Oziqaviy moddalar	Ozuqa moddalarining og'irlik ulushi				Tekshirish metodi
	Bahorgi yunshoq bug'doy		Moshning Durdona navi		
	<i>g/100g mahsulot</i>	<i>g/100 g QM*</i>	Undirilmagan mosh uni <i>g/100 g mahsulot</i>	Undirilgan mosh uni <i>g/100 g mahsulot</i>	
Suv	14,00	-	-	-	
Oqsil	12,50	14,53	28,24	31,13	GOST 54390-2011
Uglevodlar:					
Kraxmal	53,00	61,63	39,84	27,61	GOST 10845-98
mono- va disaxaridlar	0,90	1,05	3,04	7,11	GOST 8756.13
kletchatka	2,50	2,91	4,34	3,36	Kyushnerava Galek metodi
Yog'	2,30	2,67	2,41	1,76	GOST 7758-75
Kul	1,70	1,98	3,65	4,05	GOST ISO 2171-2016
Mineral moddalar, shu jumladan:					
Ca	0,057	0,066	0,006	0,014	GOST 51429-99
Mg	0,104	0,121	0,021	0,048	GOST 51429-99
Na	0,008	0,009	0,018	0,053	GOST 51429-99
K	0,350	0,407	1,587	3,410	GOST 51429-99

Izoh: *QM – quruq modda

Tayyorlangan bulyonda barcha almashinmaydigan aminokislotalar mavjud. Bulyon lizin, treonin, valin kabi aminokislotalarning miqdori yuqori bo'lishi bilan qimmatli. Yarimtayyor mahsulotlar bulyonidagi aminokislotalarning umumiy miqdori №842 retseptura bo'yicha tayyorlangan bulyonga nisbatan 20 marotabadan ortiq.

100 kg sous-pasta yarimtayyor mahsuloti tayyorlash uchun bulyon ishlab chiqarishda sarflanadigan mahsulotlar retseptura va tarkibida uglevod miqdorining ortib ketishi tufayli mahsulotning ozuqaviy qimmati pasayadi (1-2 jadvallarda keltirilgan).

Tadqiq qilingan mosh navlari urug'lari namunalari kimyoviy tarkibi va energetik qimmati bo'yicha sezilarli farqlanmadi. Biroq mosh donlarida bug'doy doniga nisbatan (quruq modda hisobida) oqsil miqdori 1,8, qandlar – 3,5, kletchatka –1,7, kul –2,0 marta ko'p hisoblanadi. Yog'ning og'irlik ulushi o'ragnilgan barcha namunalarda deyarli bir xil (3-jadvalda keltirilgan).

XULOSA

1. An'anaviy va sentrifugalash-bug'latish tizimida tomat mahsulotlari olish usullarini energiya sarfi matematik modellashtirish uslubiyoti asosida tadqiq etilgan, energiya sarfini maqduallashtirish yo'li ishlab chiqilgan. Yuqori temperaturaning tomat komponentlariga ta'sir etish davomiyligini tahlil qilingan.

2. Tomat pulpasini sentrifugalash jarayonining material balansi, elektrodvigatelning energiya sarflashi, uskunalar amortizatsiya hamda umumiy sarflardan iborat matematik modeli olinib, tadqiq etilgan maqbul xarajat sharoitlari aniqlangan.

3. Pulpani fraksiyalab, ajratigan fugatni past haroratda ko'p korpusli vakuum-bug'latish kompleksida quyultirish jarayoni matematik modellashtirilgan, jarayonning iqtisodiy ko'rsatkichlari uchun tenglamalar olinib, tadqiq etilgan va optimal sharoitlari aniqlangan.

4. Tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsuloti uchun suyuq asosning retseptura va ishlab chiqarish texnologiyasi rejimlarining optimal nisbatini aniqlangan.

5. Tomat asosidagi sous-pasta yarimtayyor mahsulotlarining konsistensiyasini shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ingredientlardan biri hisoblangan bug'doy va undirilgan mosh unlarini turli sistemalarda bo'kish darajasi va komponentlarning birgalikdagi o'zaro ta'sirini tadqiq etib, yarimtayyor va tayyor mahsulotning xossalari majmuasi yaratilgan.

6. Xomashyo va sous massalarining mikrobiologik, strukturaviy-mexanik, reologik va fizik-kimyoviy xossalari tadqiq etilgan.

7. Sous-pasta yarimtayyor mahsulotlari sifati, oziqaviy, biologik va energetik qiymatlari tadqiq etilgan.

8. Souslar tayyorlash va qo'llash texnologiyasi shakllantirilgan, sous-pasta yarimtayyor mahsulotlarining rasmiylashtirish me'yoriy-texnik hujjatlari tayyorlangan va amaliyotga qo'llashning iqtisodiy samaradorligini hisoblangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/28.02.2022.Т.101.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ДЖИЗАКСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ЭРМАТОВ ОТАБЕК САЙИТОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИГОТОВЛЕНИЯ
СОУСОВ НА ОСНОВЕ КОНЦЕНТРИРОВАННОГО ТОМАТНОГО
СОКА, ПОЛУЧЕННОГО ПРИ НИЗКОЙ ТЕМПЕРАТУРЕ**

**02.00.17 - Технология и биотехнология обработки, хранения и переработки
сельскохозяйственных и пищевых продуктов**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.4.PhD/T4146

Диссертация выполнена в Джизакском политехническом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.bstu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Холдоров Баходир Баратович кандидат технических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Ахмедов Азимжон Нормуминович доктор технических наук, профессор Чориев Абдусаттор Жураевич кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится 28 ноября 2025 г. в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 при Бухарском государственном техническом университете (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазаева, 32. Тел.: (+99865) 223-78-84; факс: (+99865) 223-78-84; e-mail: bmti_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Бухарского государственного технического университета за №396 (Адрес: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84).

Автореферат диссертации разослан 13 ноября 2025 г
(протокол реестра №12 от 20 августь 2025 г).



С.Ф.Фозилов
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

А.Т. Олтиев
Учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, доцент

И.Б.Исабаев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор технических
наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мире стремительно растёт объём выращивания фруктов и овощей, при этом особое внимание уделяется проведению научных исследований и созданию технологий их хранения, глубокой переработки и получения из них пищевых полуфабрикатов. Поэтому при проведении исследований в новых направлениях особое внимание следует уделять обеспечению населения качественными и высокопитательными пищевыми продуктами и полуфабрикатами.

Во всём мире проводятся исследования, направленные на совершенствование процессов переработки сельскохозяйственной продукции, включая переработку фруктов и овощей и производство из них разнообразных пищевых продуктов, что способствует повышению уровня их потребления в соответствии с установленными нормами рационального питания. В этой связи особое внимание уделяется созданию и внедрению новых технологий в производство, получению высококачественной продукции, сохранению пищевой и биологической ценности вырабатываемого продукта, экономии первичного сырья, эффективному использованию натурального сырья и продуктов, снижению себестоимости готовой продукции, развитию и расширению поставок полуфабрикатов на предприятия общественного питания.

